

SARVEPALLI RADHAKRISHNAN “HINDISTON FALSAFASI TARIXI” ASARIDAGI FALSAFIY G‘OYALARI, HINDISTON FALSAFASI TARIXINING ASOSCHISI SIFATIDA

Abdullaziz Abdusattorovich Abduvaxidov

*O‘zbekiston Yoshlar ishlari agentligi, Yangiheyot tumani bo‘limi
“Olchazor” mahallasi yoshlar yetakchisi*

Sarvepalli Radhakrishnan zamonaviy Hindiston burjua falsafasining yirik namoyondasi hisoblanadi. Zamonaviy Hindistonning burjua mafkurasi, uning falsafiy va ijtimoiy ta‘limi murakkab, ko‘p qirrali va anchayin xilma-xildir. G‘arbning yangi turdagi falsafiy maktablari – neogegelchilik, ekzistensializm, mantiqiy pozitivizm, sotsiometriya va boshqalar qadimgi va o‘rta asr Hindistonning an‘anaviy va falsafiy tizimlari bilan yonma-yon. Hind burjua falsafasi keng miqyosdagi muammolarni ko‘rib chiqadi. Diniy poklanish masalasining sxolostik savollaridan tortib, tabiiy bilimlarning yangi ma‘lumotlarini o‘rganishgacha; Hindistonning ko‘p asrlik madaniyatining ma‘naviy va falsafiy merosini o‘rganish, unda sotsializm tabiatining zamonaviy rivojlanishi muammolarini muhokama qilish bilan chigallashib ketadi. Biroq bu muammolarning, burjua mafkurasi maktabi va oqimlarining hamda Hindiston falsafasining xilma-xilligida bir qancha umumiy jihatlar borki, quyida ba‘zilarini ko‘rib chiqamiz.

1. Mamlakatning milliy ozodlik harakati xarakteri va milliy burjuaziyaning undagi o‘rni falsafiy muammolar rang-barangligi ichidan ko‘proq ijtimoiy-axloqiy ko‘rinishdagi muammolarga e‘tibor beriladi: insonning uni o‘rab turgan turmush tizimidagi o‘rni, uning jamiyatdagi roli, jamiyat va millat tabiati, turli jamiyatlarning, millat va davlatlarning o‘zaro munosabatlari, o‘tmishning hozirgi zamonga ta‘siri va boshqalar. Hindistonning falsafiy ta‘limotlarining aksari gumanitar xususiyatga ega. Biroq, bu ba‘zi hind faylasuflarining tabiiy fanlarga murojaat qilishi va ularni izohlashga urinishlarini inkor etmaydi.

2. Milliy muammolarning xalqaro muammolar bilan chambarchas bog‘liqligi falsafiy, sotsiologik va ijtimoiy-siyosiy ta‘limotlarda ko‘riladigan doirasini o‘ta kengligini belgilaydi. Milliy rivojlanish muammolarini nazariy jihatdan anglash odatda dunyo sivilizatsiyasi, butun insoniyat taqdiri haqidagi mulohazalar bilan uyg‘unlashib ketadi.

Umuman aytganda G‘arbning ham har qanday mafkurasi va falsafiy tizimi u yoki bu mamlakatning ma‘lum sharoitlarida vujudga kelib, dunyo muammolarini hal qilishga da‘vogarlik qiladi. Biroq G‘arbning ahamiyatli falsafiy ta‘limotlari odatda faqat rivojlangan mamlakatlar sharoitlariga suyanadilar va Osiyo, hamda Afrika mamlakatlari rivojlanishiga ulkan ta‘sir ko‘rsatishni hisobga olmaydi. Bu mamlakatlar uzoq vaqt tarixning passiv obyekt bo‘lgan bo‘lsa, endilikda uning faol yaratuvchisiga aylanmoqda. Ular tarixiy jarayonni barcha tarkibiy komponentlarini o‘zaro sharoitini

hisobga olishga harakat qilganlar. Uni keng miqyosda – butunjahon istiqbolida ko'rishadi. Sharq va G'arb xalqlarining aloqalari uzviyligini e'tiborsiz qoldirmaydilar¹⁷. Shu bois Hindistonning deyarli barcha mutafakkirlarining dunyoqarashlari har tomonlamaligi bilan ajralib turadi. Ularning qiziqishlari doirasi nafaqat milliy, balki dunyoviy rivojlanishning tub muammolarini o'z ichiga oladi.

Osiyo va Afrika mamlakatlarining dunyo hayotidagi o'рни va ahamiyatining o'sib borayotgani ularning mutafakkirlari o'z mamlakatlari ahamiyatini bo'rttirish, ko'paytirish holatiga olib kelmoqda. Bu esa, ularning tor doiradan turib butun insoniyat muammolarini hal etishga davogarlik qilishiga sabab bo'lmoqda. Bu mafkuraviy vaziyat ba'zida hind mutafakkirlariga ham ta'sir etib, ularda o'ziga xos yevropasentrizmga qarshi sharqsentrizm hissini vujudga keltiradi.

Hindiston mafkurasida, boshqa rivojlangan mamlakatlar mafkurasiga singari, qadimdan ikki asosiy yo'nalishlar shakllangan: ratsionalistik, ateistik va materialistik bir tomondan, hamda diniy-idealistik va mistik ikkinchi tomondan. Bu ikki yo'nalish Hindistonning ma'naviy madaniyatining rivojlanishining barcha jarayonlaridan o'tmoqda. Ular orasidagi doimiy kurash esa Hindiston qiyofasini belgilab beradi. Biroq bir qator vazifalarga ko'ra Hindistonda milliy ozodlik harakati vujudga kelgan davrda tasnifiga ko'ra, burjua-demokratik bo'lgan ilk yo'nalish bu yerda Yavropadagi burjua revolyutsiyasi davridagi kabi shov-shuvli bo'lmadi. Hindistonda ikkinchi yo'nalish ortida yakka hukmronlik saqlanib qolgan bo'lib, bu milliy meros an'analarini idrok etishda, hamda mamlakatning zamonaviy mafkuraviy hayotiga ta'sir etmay qolmasdi. O'tmishning ko'plab diniy-idealistik tizimlari orasida Hindistonning zamonaviy falsafiy va ijtimoiy-siyosiy fikrlari Upanishadlar va Bhagavadgita kabi ma'naviy-madaniy yodgorliklarda ifodalangan diniy-idealistik ta'limot va nazariyalardan foydalaniladi¹⁸.

Uning fikricha, din jamiyatda yetakchi rol o'ynashi, inson hayotini aniqlovchi omildir. Xar bir shaxs e'tiqodga muxtojdir. Faylasuf "lymon va e'tiqod har bir kishining hayot yo'lini aniq ko'rsata oladi", deydi. Din – kishining millati, mazxabi, irqi, mansabidan qat'iy nazar barchaga bab-baravar xizmat qiladi. Sarvepalli Radhakrishnan yangi davr hind falsafasining yirik namoyondasi, davlat arbobi, Milliy Ozodlik harakatining yetakchi arboblardan biri bo'lgan. Din ijtimoiy fikr rivojiga o'z ta'sirini ko'rsatibgina qolmay, balki mustamlakachilik zulmiga qarshi kurashda ham rol o'ynagan. Hindistonda sodir bo'layotgan Milliy Ozodlik harakatining barcha jarayonlarida yetakchi rolni o'ynagan.

Radhakrishnanning prezidentligida asosiy muammo ishsizlik va ochlik qiynar edi. U industrialashtirish, millionlab axoliga ish zaruriligini anglar edi. Shu bois davlatning iqtisodiy sektorini har tomonlama rivojlantirish haqida bong urardi. Bundan tashqari, ishsizlikni qisqarishiga va mamlakatning iqtisodiy o'sishiga yordam bersa, shaxssiz mablag'larni yangi sanoat korxonalarini uchun sarflashni targ'ib etdi. 1964 – yilning

¹⁷ Радхакришнан С. Индийская философия. – М.: Наука, 1957. – С. 243.

¹⁸ Радхакришнан С. Индийская философия. – М.: Наука, 1957. – С. 245.

iyulida, Madrasda xususiy korxonaga tegishli bo'lgan alyuminiy korxonasini ishga tushirish munosabati bilan u shunday nutq so'zladi: "...ichki sanoat siyosatimizga taalluqli bo'lgan hollarda biz aqidaparast emasmiz, biz farovonlikning oshishi va ishlab chiqarishni yuksalishiga sabab bo'ladigan har qanday loyihani qo'llab-quvvatlashga tayyormiz. Ba'zilar bizni ijtimoiy sektor tarafdori, deb atasa boshqalar xususiy sektorga ham yordam berishimiz lozimligini ta'kidlashmoqda. Bizda bunday ishqibozliklar yo'q. Biz rivojlanishning biror bir ko'rinishi bilan bog'liq emasmiz. Biz mamlakatda ishlab chiqarishning o'sishini ta'minlamoqchimiz. Turmush darajasini yuksalishini istaymiz. Bunga yordam beradigan hamma narsa qabul qilinishi mumkin"¹⁹.

Radhakrishnan doimo xalqining farovonligi yo'lida ga'mxorlik qilish prinsiplariga amal qilar edi. U hamisha industriallashtirish o'z holicha emas, balki shu maqsadga erishish vositasi sifatida muhimligini ta'kidlardi, hamda aholining, ayniqsa ishchi sinfi buni his etishini xohlardi.

Faylasuf Radhakrishnan butun dunyoni bitta maktab deb hisoblagan. U faqat ta'lim orqali inson ongidan foydalanish mumkin deb hisoblagan. Shu sababli, ta'limni, dunyoni yagona birlik deb hisoblash orqali boshqarish kerak.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Radhakrishnan S. The Indian approach to the religious problem. The Indian mind. Essentials of Indian philosophy and culture. – D.: India, 1992.
2. Радхакришнан С. Индийская философия. – М.: Наука, 1957.

¹⁹ Там же. – С. 104.